

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PASPORTI**

Samarqand - 2024

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

1. Universitet haqida umumiy ma'lumot.

Samarqand davlat universiteti tarixi mamlakatimiz hududida IX asrlardanoq paydo bo'la boshlagan madrasalar hamda buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek asos solgan madrasayi oliya ildizlariga borib taqaladi. Samarqanddagi qadimiy oliy ta'lim muassasasiga buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek asos solgan va 1420-yilda ishga tushirilgan madrasayi oliya XX asrning 20-yillarigacha faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Samarqand davlat universiteti o'tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan o'z faoliyatini boshlagan.

1926-yilning 10-avgustida O'zbekiston Xalq komissarlari kengashi majlisining 103-bayonnomasi bilan Samarqandda oliy o'quv yurti tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Oliy pedagogika instituti nomi bilan tashkil etilgan hozirgi Samarqand davlat universiteti 1927-yil 22-yanvarda tantanali ravishda ochilgan. Oliy pedagogika instituti 1930-yil 22-yanvardan e'tiboran O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasi deb nomlangan va qayta tashkil etilishi munosabati bilan fakultet tizimiga o'tilgan. 1941-yilning mart oyida pedakademiya qayta tashkil etilib, O'zbekiston davlat universiteti (O'zDU) deb nomlangan va mutafakkir shoir Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyi munosabati bilan universitetga uning nomi berilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-yilning noyabr oyidan 1944-yilning oktabrigacha) O'zDU O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) tarkibida o'z faoliyatini olib bordi va O'zbekiston hukumatining 1944-yil 25-fevraldag'i qarori bilan qayta tiklangan. O'zbekiston Hukumatining 1960-yil may oyidagi qarori bilan O'zDUGa Samarqand davlat universiteti (SamDU) nomi berilgan.

2. Rahbarlar tarkibi haqida ma'lumot.

Rektor – Xalmuradov Rustam Ibragimovich.

1949-yilning 16-avgustida Samarqand shahrida tug'ilgan;

Texnika fanlari doktori, professor;

Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutini tamomlagan, muhandis-quruvchi;

Rektor lavozimida 2016-yilning 29-sentabridan boshlab ishlab kelmoqda.

O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor – Soleyev Ahmadjon.

1951-yilning 1-iyunida Samarqand shahrida tug'ilgan;

Fizika-matematika fanlari doktori, professor;

Samarqand davlat universitetini tamomlagan, matematik;

Prorektor lavozimida 2017-yilning 11-sentabridan boshlab ishlab kelmoqda.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor – Umidullayev Shuhrat Ubaydullayevich.

1972-yilning 6-martida Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanida tug'ilgan;

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent;

Samarqand davlat universitetini tamomlagan, huquqshunos;

Prorektor lavozimida 2023-yilning 4-avgustidan boshlab ishlab kelmoqda.

Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor –
Yuldashev Rustam Daniyorovich.

1978-yilning 28-may kuni Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanida tug‘ilgan;
Samarqand davlat universitetini tamomlagan, mutaxassisligi tarixshunoslik,
manbashunoslik va tarixiy tadqiqot metodlari, falsafa fanlari doktori (PhD);
Prorektor lavozimida 2023-yilning 5-avgustdan ishlab kelmoqda.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor – Xushvaqtov Hakim
Abdilhaqovich.

1972-yilning 28-martida Samarqand viloyatining Urgut tumanida tug‘ilgan;
Samarqand davlat universitetini tamomlagan, fizik.
Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
Prorektor lavozimida 2017-yilning 29-dekabridan boshlab ishlab kelmoqda.

Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor – Rahmanov Ismayil Usmanovich.
1967-yilning 15-mayida Samarqand viloyatida tug‘ilgan;
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti hamda Samarqand iqtisodiyot va
servis institutlarini tamomlagan, muhandis-quruvchi, moliyachi;
Prorektor lavozimida 2023-yilning 22-mayidan boshlab ishlab kelmoqda.

Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor – Ahatov Akmal Rustamovich.
1974-yilning 18-dekabrida Samarqand shahrida tug‘ilgan;
Samarqand davlat universitetining amaliy matematika fakultetini tamomlagan;
Texnika fanlari doktori, professor;
Prorektor lavozimda 2022-yilning 16-fevralidan boshlab ishlab kelmoqda.

Qurulish-ta’mirlash ishlari bo‘yicha prorektor – Shukurov Shavkat
Shukurovich.
1987-yilning 15-martida Samarqand shahrida tug‘ilgan;
Samarqand davlat universitetining iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
yo‘nalishini tamomlagan;
Prorektor lavozimida 2022-yilning 11-yanvaridan ishlab kelmoqda.

3. Universitet fakultetlari va kafedralari tuzilmasi:

Universitet filiallari soni 2 ta, institutlar soni 5 ta, fakultetlar soni 8 ta, kafedralar
soni 58 ta.

1. SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali.
2. SamDU Urgut filiali.
3. SamDU Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti.

4. Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti.
5. Muhandislik fizikasi instituti.
6. Biokimyo instituti.
7. Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti.
8. Intellktual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti.
9. Geografiya va ekologiya fakulteti.
10. Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti.
11. Matematika fakulteti.
12. Pedagogika ta'limi fakulteti.
13. Tarix fakulteti.
14. Filologiya fakulteti.
15. Yuridik fakulteti.
16. Xalqaro ta'lim dasturlari markazi.
17. Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi.
18. Magistratura markazi.
19. Sun'iy intellektni tartibga solishni rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo tadqiqot markazi.
20. O'zbekiston-Hindiston sun'iy intellekt va mashinali o'qitish qo'shma markazi.
21. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi.
22. Axborot-resurs markazi.
23. Tayyorlov markazi.
24. SamDU huzuridagi akademik litsey.
25. SamDU huzuridagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab.
26. SamDU huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab Urgut filiali.

4. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni 70 ta, talabalari soni 19626 nafar;
- magistratura mutaxassisliklari soni 47 ta, talabalari soni 383 nafar.

5. Kadrlar tayyorlash bilim sohalari bo'yicha.

- Gumanitar soha va talabalari soni-3701(18,5%);
- Ta'lim o'qituvchilari tayyorlash sohasi va talabalari soni-**6373 (31,9%)**;
- Ijtimoiy fanlar sohasi va talabalari soni-**1207 (6,0%)**;
- Ijtimoiy ta'minot sohasi va talabalari soni-**204 (1,0%)**;
- Biznesni boshqaruv sohasi va talabalari soni- **1054 (5,3%)**;
- Hayot haqidagi fan sohasi va talabalari soni-**1242 (6,2%)**;
- Tabiiy fanlar sohasi va talabalari soni -**1858 (9,3%)**;
- San'at sohasi va talabalari soni-**195 (1,0%)**;
- Fan sohasi va talabalar isoni-**1323 (6,6%)**;
- Ishlab chiqarish, texnika sohasi va talabalari soni-**989 (4,9%)**;

- Atrof-muhit muhofazasi sohasi va talabalari soni - **170 (0,8%)**;
- Huquq sohasi va talabalari soni-**1005 (5,0%)**;
- Xizmatlar sohasi va talabalari soni -**60 (0,3%)**;
- Qishloq, suv xo'jaligi sohasi va talabalari soni-**628 (3,1%)**;
(Izoh: *talabalar foizi mazkur bilim sohasi bo'yicha umumiy talabalar kontingentiga nisbatan olindi*).

6. Talabalar kontingenti.

Jami **20009 nafar** (shu jumladan ayollar **10214 nafar (51%)**).

Ulardan kunduzgi bo'limda o'qiyotganlar **10657 nafar (53,3%)**.

Ulardan magistraturada o'qiyotganlar **383 nafar (1,9%)**.

Ulardan sirtqi bo'limda o'qiyotganlar **7361 nafar (36,8%)**.

Ulardan kechki bo'limda o'qiyotganlar **1243 nafar (6,2%)**.

Ulardan sirtqi (ikkinchi oliy ta'lif) bo'limda o'qiyotganlar **200 nafar (1,0%)**.

Bakalavriatda **19626 nafar (98,9 %)**, magistraturada **383 nafar (1,9 %)**.

(Shu jumladan, davlat granti bo'yicha bakalavriatda **2614 nafar (13,1%)**, shu jumladan davlat granti bo'yicha sirtqi bo'limda **82 nafar (0,4%)**, shu jumladan, davlat granti bo'yicha kechki bo'limda **12 nafar (0,1%)**, magistraturada **258 nafar (67,4%)**.

Xalqaro ta'lif dasturlari markazida **165 nafar (0.8%)**.

Talabalar kontingenti o'qitish tillari kesimida:

- o'zbek tilida **17592 nafar (89,8%)**;

- rus tilida **1729 nafar (8,6%)**;

- tojik tilida **302 nafar (1,5%)**;

Boshqa viloyatlardan kelib o'qiyotganlar **3708 nafar (18,5%)**.

Chet elliq talabalar soni **21** (shu jumladan, xorijiy davlatlar kesimida: **Xitoy Xalq Respublikasidan - 13 nafar, Tojikistondan - 4 nafar, Rossiya Federatsiyasidan - 3 nafar, Qozog'istondan – 1 nafar**.

Oxirgi o'quv yilida **5993 nafar** bakalavr, **481 nafar** magistr bitirdi (shu jumladan, davlat granti bo'yicha bakalavriatda - **872 nafar (14,5%)**, magistraturada **-233 nafar (48,4 %)**).

2023/2024-o'quv yilida bakalavriaturaga **1969 nafar** talaba, **403 nafar** sirtqi, **370 nafar** kechki, **112 nafar** talaba magistraturaga qabul qilindi (shu jumladan davlat granti bo'yicha bakalavriatga – **752 nafar (38,2%)**, sirtqiga - **14 nafar (3,5%)**, kechkiga - **9 nafar (2,4%)**, magistraturaga - **193 nafar (37,6 %)**).

Xalqaro ta'lif dasturlari markaziga **26 nafar** talaba qabul qilindi.

Bakalavriatda ta'lif olayotgan talabalardan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi **1 nafar**.

Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohibi **1 nafar**.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasi sohibi **2** nafar.
Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi **10** nafar.
Xalqaro musobaqlar sovrindorlari **3** nafar.
Respublika sport musobaqlari sovrindorlari **15** nafar.
Respublika fan olimpiadalari g‘oliblari **3** nafar.
Xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari **6** nafar.

Magistraturada ta’lim olayotgan talabalardan:

Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi **4** nafar.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasi sohibi **2** nafar.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi **2** nafar.
Respublika fan olimpiadasi g‘oliblari - **2** nafar.
Xalqaro va respublika ko‘rik-tanlov g‘oliblari – **3** nafar.

7. Professor-o‘qituvchilar tarkibi.

Jami **866** nafar (shu jumladan, xotin-qizlar **268** nafar).
Universitet bo‘yicha ilmiy darajali(unvonli)lar soni **513** nafar (asosiy shtatdagi o‘qituvchilar).

Ulardan:

asosiy shtatda – **755** nafar;
- **104 nafar** fan doktori, professor;
- **409 nafar** fan nomzodi , dotsent;
- **50 nafar** katta o‘qituvchi;
- **192 nafar** assistent;
- o‘rindoshlik asosida ishlayotganlar – **111** nafar;
- soatbay asosida ishlayotganlar – **15** nafar;

8. Universitetda malaka oshirish va qayta tayyorlash holati.

Oxirgi 3 yilda malakasini oshirgan professor-o‘qituvchilar **548 nafar** (84,3%);

9. 2023-yil davomidagi ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlar natijalari.

Chop etilgan: 1534 ta ilmiy maqola (ulardan **764** tasi chet elda);

81 ta monografiya;
111 ta o‘quv qo‘llanma;
59 ta darslik.

Oxirgi 3 yilda dissertatsiyasini himoya qilgan universitet xodimlari soni (2021-yilda 78 nafar, 2022-yilda 123 nafar, 2023-yilda 118 nafar).

10. Xalqaro hamkorlik.

Xorijiy hamkor universitetlar bilan imzolangan kelishuv shartnomalari va anglashuv memoradumlar soni: 240 ta (jahonning 35 ta mamlakatining nufuzli olyi ta’lim muassasalari).

Xorijiy talabalar soni: 29 nafar:

- bakalavriat talabalar: 19 nafar;
- magistrant talabalar: 2 nafar;

- tayanch doktorant va izlanuvchi tadqiqotchilar: 8 nafar (shu jumladan xorijiy davlatlar kesimida: Xitoy Xalq Respublikasidan - 15 nafar, Tojikistondan - 5 nafar, Rossiya Federatsiyasidan - 5 nafar, Janubiy Koriyadan 2 nafar, Pokistondan -1 nafar, Turkmanistondan – 1 nafar).

Xorijiy professor-o'qituvchilar soni: 89 nafar.

Qo'shma ta'lif dasturlari soni: 13 ta (markazda tahlil olayotgan jami talabalar soni: 186 nafar, shundan: 182 nafar bakalavriat va 4 nafar magistrant talabar).

Xorijiy grant loyihalari soni: 11 ta (umumiyligi moliyalashtirish hajmi: 349,300 ming AQSH dollar) (Erasmus+, TIKA, JICA, KOICA, MAGATE, Jahon Banki, DAAD).

Xorijiy hamkor universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazlari va qo'shma lababoratoriylar soni: 7 ta (bular: Sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha Markazi Osiyo tadqiqot markazi, Hindiston-O'zbekiston sun'iy intellekt va mashinali o'qitish qo'shma markazi, Kvant markazi, Aziz Sanjar nomidagi zamonaviy analiz usullari laboratoriyasi, Sian Jiatong universiteti bilan hamkorlikda tashkil qilingan "Xitoy markazi", SpbPU-SamDU ilmiy tadqiqot texnologiya markazi, O'zbekiston-Xitoy zamonaviy sintez qo'shma laboratoriyasi).

11. Universitet moddiy-texnik bazasi.

O'quv-laboratoriya xonalaring umumiyligi maydoni 33081 kv.m.

Bir talabaga to'g'ri keladigan foydali maydon 2.2 kv.m.

O'quv auditoriyalari soni 499, (bu o'quv jarayonini faqat 2 smenada olib borishga yetarli).

Laboratoriya xonalari 65 ta, lingafon sinflari 2 ta, (laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganlik 100 %).

Kompyuter sinflari soni 35, (kompterlar soni 11 nafar talabaga 1 kompter to'g'ri keladi), Internetga ulangan kompterlar soni 1839. Texnik nosoz va ma'naviy eskirgan kompyuterlar soni 43.

Talabalar turar joylari soni 6 ta, o'rinalar soni 2200 (turar joyga ehtiyojmandlar 3488 nafar, ulardan 2312 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi). Shuningdek, 3488 nafar talaba xususiy xonadonlarda ijara yashaydi. Talabalar uchun ovqatlanish majmualari: oshxonalar soni 8 ta (1160 ta o'ringa ega).

Sport majmualari: yopiq zallar soni 4 ta.

12. Moliyaviy masalalar.

Ajratilgan budjet **104946,0** mln. so'm. Budgetdan tashqari mablag'lar **292450,0** mln. so'm. Investitsiya **0** mln. so'm. Chet el investitsiyasi **0** AQSH dollar. Homiylik yordami **0** mln. so'm.

2024-yilda o'quv jarayoni uchun sarflangan xarajatlarning umumiyligi hajmi **409552,0** ming so'm.

REKTOR

R.I.XALMURADOV

